



Fidoyilik –
Vatanga xizmat demak!

2024-yil 17-oktabr, payshanba,

120 (23.997)-son

Oliy Majlis
Qonunchilik
palatasi va
mahalliy
Kengashlar
deputatlari
saylovgiga

9 KUN
qoldi

Zarafshon

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz [@zarnews_uz](https://www.facebook.com/zarnews.uz) [@zarnews_uz](https://twitter.com/zarnews_uz)

AZIZ VATANDOSHLAR! SAYLASH HUQUQINGIZDAN FOYDALANING!

Samarqand viloyati hokimining QARORI

Xalq deputatlari
viloyat Kengashining
oltinchi chaqiriq
bir yuz to'rtinchi
sessiyasini chaqirish
to'g'risida

"Mahalliy davlat hokimiysi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 17-moddasiga asosan
QAROR QILAMAN:

1. Xalq deputatlari viloyat Kengashining oltinchi chaqiriq bir yuz to'rtinchi sessiyasi **2024-yil 23-oktabr kuni** chaqirilsin.

2. Sessiya kun tartibiga quyidagi masalalar kiritilsin:
- viloyat avtomobil yo'llari bosh boshqarmasi boshlig'i Axat O'rroqning O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi "Avtomobil yo'llarida inson xavfsizligini ishonchli ta'minlash va o'lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-190-son qarorining viloyatdagi ijrosi yuzasidan hisoboti;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 9-yanvardagi "2024-yilda yangi ish o'rnlarni tashkil etish va aholi bandligiga ko'maklashish dasturi to'g'risida"gi PQ-7-son qarori ijrosi yuzasidan viloyat kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasini boshlig'i Temur Mahmudovning hisoboti to'g'risida;

- jamoat ehtiyojlar uchun yer uchastkalarining olib qo'yilishi ruxsat berish to'g'risida;

- jamoat ehtiyojlar uchun yer uchastkasini olib qo'yish bo'yicha taqdimot materialarini ko'rib chiqish va mulkdorlar bilan ochiq muhokama o'tkazishga ruxsat berish to'g'risida;

- xalq deputatlari viloyat Kengashining 2023-yil 27-dekabrdagi "Samarqand viloyatining 2024-yilgi mahalliy budgetini tasdiqlash to'g'risida"gi VI-94-126-7-0-K/23-son qaroriga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida;

- "O'zbektelekom" AKning mobil va simli ma'lumotlarni uzatish tarmoqlarini rivojlantirish" loyihasi doirasida telekommunikatsiya infratuzilmasini Samarqand viloyatida yanada rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan loyiha konsepsiyasini kelishish to'g'risida;


- xalq deputatlari viloyat Kengashining 2024-yil 24-sentabrdagi "Viloyat mahalliy budgetining qo'shimcha manbalaridan foydalish to'g'risida"gi VI-103-104-7-0-K/24-son qaroriga o'zgartirish kiritish to'g'risida;

- viloyat mahalliy budgetining qo'shimcha manbalaridan foydalish to'g'risida.

Viloyat hokimi

E.TURDIMOV

2024-yil 15-oktabr



Saylovchilar

muddatidan oldin ovoz bermoqda

27-oktabr kuni o'tkaziladigan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va xalq deputatlari mahalliy Kengashlar deputatlari saylovida 16-oktabrдан muddatidan oldin ovoz berish jarayoni boshlandi. Muddatidan oldin ovoz berishni o'tkazish uchun viloyatimizdag 1130 ta saylov uchastkasiga saylovchilar umumiyl sonining 10 foizi miqdorida saylov bulletenlari yetkazib berilgan.

Saylov kodeksiga ko'ra, saylov kuni o'z yashash joyida bo'lish imkoniyatiga ega bo'imagan saylovchi muddatidan oldin ovoz berish huquqiga ega. Buning uchun saylovchi saylov kunida bo'la olmasligining sabablari ko'rsatilgan ariza asosida tegishli uchastka saylov komissiyasiga murojaat qilishi lozim.

Samarqand tumani Oqmachit mahallasida yashovchi Islom Narziqulov 27-oktabr

kuni safar bo'lishi sababli 865-saylov uchastkasiga kelib, o'z fuqarolik huquqidagi foydalanish holda o'zi tanlagan siyosiy partiya va deputatlikka nomzodlarga muddatidan oldin ovoz berdi.

– Saylov kuni yashash joyimda bo'lmolasigim tufayli bugun saylov uchastkasiga kelib, o'z fuqarolik huquqimdan foydalandim, – deydi K.Mansurova. – Shu paytgacha bizning hudduda kimlar deputatlikka nomzodligi, ularning dasturlarida nima maqsadlar borligini bilib oldim. O'zim munosib deb

bilgan partiya va nomzodlarga muddatidan oldin ovoz berdim.

Mazkur saylov uchastkasida Oqmachit mahallasida yashovchi 2500 dan ortiq saylovchi ro'yxatga olingan.

– Hozirda mahalladagi xonardonlarning har birida gi saylovchilar soniga aniqlik kiritilib, ro'yxat takomillashtirilmoqda, – deydi 865-uchastka saylov komissiyasi raisi Anvar Zohidov. – Hozirda uchastkada ovoz berishni o'tkazish uchun barcha sharoit yaratilgan. Zarur jihoz va texnik vositalar, saylovga oid qonun hujjatlari va

ma'lumotnomalar bilan ta'minlanganmiz. Bugundan boshlangan muddatidan oldin ovoz berishni o'tkazish uchun saylov bulletenlari, konvert va boshqa vositalarni olganmiz.

Markaziy saylov komissiyasining qaroriga ko'ra, joriy yilgi saylovda muddatidan oldin ovoz berish 2024-yil 16-23-oktabr kunlari saat 9:00 dan 18:00 ga qadar, dam olish kunlari esa saat 11:00 dan 17:00 ga qadar o'tkaziladi.

Viloyat hududiy saylov komissiyasi matbuot markazi.

Tadbirkorlar oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qiladi

Jasur Rizayevning ta'kidlashicha, universitetda shu paytgacha 27 ta loyiha ishlab chiqilgan. Hozirda 4 ta innovatsion loyiha tasdiqlash bosqichida bo'lsa, 5 ta startap va 5 ta tijoratlashtirilgan loyiha mavjud.

– Ilmiy ishlama va loyihalarimiz bugungi kun talabidan kelib chiqib tayyorlanayotgani bo'si 11 ta loyihamiz moliyalashtirildi, – dedi J.Rizayev. – Ayni paytda yana o'nta yangi dori vositasini bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ular ham muvaffaqiyatlari amalga oshirilishiga ishonamiz. Umuman, bu kabi loyihalar universitet uchun, tadqiqotchi uchun manfaat keltiradi. O'z navbatida uni ishlab chiqarish jarayonida qo'llagan tadbirkor, korxonalar ham foysa ko'rsihi tabiiy. Shu sababli kelgusida ilmiy tadqiqot faoliyatini yanada kengaytirishni rejalashtirganimiz. Bu borada tadbirkorlik subyektlari bilan hamkorlik qilishga ham tayyormiz.

Uchrashuvda ishtirot etgan viloyat hokimi Erkinjon

Turdimov ilm va biznes vakillari o'rtasidagi hamkorlik rivojlantirishidan ikki tomon bilan birga jamiyat, davlat ham manfaat ko'rishini ta'kidladi.

– Davlatimiz rahbari bejiz ilm-fanga bunchalik katta e'tibor qaratmayapti, – dedi E.Turdimov. – Bugungi shiddatkor zamonda bilingma asoslangan iqtisadiyot orqali mamlakat taraqqiyotiga erishish, xalqaro miqyosda raqobatbardosh bo'lish mumkin. Yaratilayotgan ilmiy ishlamalar, tadqiqotlar amaliyat bilan uzvi bog'liq bo'lishi kerak. Shu bilan birga, bugun tadbirkorlik sohasida ham ilmli mutaxassislarining o'rnini oshib borayotganlari unutmaksiz lozim.

Viloyat hokimi tadbirkorlar maslahat kengashining bu kabi uchrashuv va yig'lishtirishni bundan buyon oliy ta'lim muassasalarida ham olimlar va yoshi tadqiqotchilar ishtirokida o'tkazishni takif qildi. Bu tashabbus kengash a'zolari tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Qadimiy shaharning zamonaviy qiyofasi

Shu yilning avgust oyida "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivalida qatnashish uchun Samarqanda kelgan ozarbayjonlik san'atkordan birligi 2017-yilda o'n birinchi festivalda ishtirok etgani va o'tgan yetti yil davomida shahar tanib bo'limas darajada o'zgarib, yana ham ko'raklashganini hayrat bilan aytgandi. Faqat u emas, avvallari Samarqanda bo'lgan boshqa mehmonlardan ham qadimiy kentdagi bonyodkorlik ishlari, o'zgarishlar e'tirofini eshitgandik.

Bir necha yildan buyon Germaniyada yashayotgan do'stimiz esa yaqinda Samarqandga kelib, Qorasuvda zamonaviy shaharcha, eshkak eshish kanali atrofida xalqaro turistik markaz yaratilgani, yangi yo'llar, ko'priklar qurilganini ko'rib, shaharni tanly olmaganini aytganda kulib qo'yandik.

O'ylab ko'rsak, chindan ham keyingi yillarda yurtimizda, jumladan, Samarqandda kechayotgan qurilish-bunyodkorlik ishlaringin ko'lami shunchalik kengayib boryaptiki, bir muddat ko'rmagan joyimiz qisqa vaqt ichida o'zgarib, yangicha ko'rinishiga kirmoqda.

Ayniqsa, Samarqand eshkak eshish kanali atrofida butunlay yangi maskan – Xalqaro turizm markazi bonyod etilgani, Qorasuv massivida yuz ming aholi yashaydigan yangi shaharcha paydo bo'lgani. Samarqand xalqaro aeroporti rekonstruksiya qilingani, yo'llar, ko'priklar qurilgani va bu ishlardan davom etayotgani bonyodkorlik ishlari shiddati va ko'lami kengligidan daolat beradi.

Samarqand shahar hokimligining ma'lumotlariga ko'ra, yoriy ilgi investitsiya dasturi asosida shaharda umumiy qiymati 268 milliard 840 million so'mlik qurilish va rekonstruksiya ishlari amalga oshirish rejalashtirilgan.

– Bu mablag'ning salmoqli qismi sog'liqni saqlash obyektlari, maktabgacha ta'lif tashkilotlari va maktablar, sport, madaniyat va san'at maskanlari qurish va rekonstruksiya qilish ishlari sarflanadi, – deydi Samarqand shahar hokimi Fazliddin Umarov. – Jumladan, ayni paytda shaharning yangi aholi maskani hisoblangan Qorasuv massivida tug'ruqxona va 1860 o'rni maktab qurilmoqda. Bundan tashqari, o'ndan ortiq maktab va bog'cha, tibbiyot muassasalari rekonstruksiya qilindi. Aholining uy-joya bo'lgan talabini qondirish maqsadida bu yil 5973 xonadoni 63 ta



ko'p qavatlari uy-joy bunyod etilmoqda. Ularning aksariyatida qurilish ishlari yaratilgani.

Abu Dabi taraqqiyot jamg'armasining 300 million dollarlik kredit mablag'i hisobidan Amir Temur va Gagarin ko'chalari rekonstruksiya qilinib, kengayirildi, piyodalar yo'laklari qurildi. Gagarin va Mirzo Ulug'bek ko'chalari kesishmasida umumiy uzunligi 440 metr, inshoot uzunligi 44 metr bo'lgan tonnel bunyod etildi. Ayni paytda Gagarin va Rudakiy ko'chalari kesishmasida yana bir shunday tonnel qurilishi davom etmoqda.

Ushbu mablag' hisobidan shuningdek, shahardagi 15,8 kilometr ichimlik suv tarmoqlari yangilamoqda, Cho'ponota va Dahbed suv inshooti hamda 6 ta nasos stansiyasi rekonstruksiya

18-oktabr –
Samarqand shahri kuni

17-OKTABRdan
1 USD - 12 777,06 so'm (-15,97),
1 EUR - 13 920,61 so'm (-40,42),
1 RUB - 131,44 so'm (-0,43)
etib belgilandi.



Bugun havo o'zgaruvchan bo'lib, yog'ingarchilik bo'ladi. Harorat kechasi 3-8 daraja iliq, ba'zi huddurlarda 0-1 daraja sovuq kuzatiladi, kunduzi 13-18 daraja iliq bo'ladi. 18-20-oktabr kuntari ham yog'ingarchilik kuzatilmaydi. Kechasi 3-12 darajagacha iliq, kunduzi 17-28 darajagacha issiq havo hukmronlik qiladi.

Samarqand gidrometeorologiya boshqarmasi

YANGILIKKA ASOSLANGAN LIBERAL G'YOYALAR – TARAQQIYOT TAYANCHI



O'zbekiston Liberal-demokratik partiyaning saylovoldi dasturida mamlakatning barqor taraqqiyoti va xalq farovonligini ta'minlash uchun adolatlari va zamonaviy davlat barpo etish, aholi uchun qulay atrof-muhit yaratish, shuningdek, tashqi siyosatda iqtisodiy diplomatiyani kuchaytirish muhim yo'naliishlar sifatida belgilangan.

XALQ XIZMATIDAGI ADOLATLI VA ZAMONAVIY DAVLATNI BARPO ETAMIZ

Insonning haq-huquqlari va erkinliklarini ta'minlash barcha davlat organlari faoliyatining eng ustuvor yo'naliishi bo'lishi kerak, degan qat'iy tamoyiliga tayanish – **asosiy vazifamiz bo'ladi**.

Biz budget tashkilotlari xarajatlarining shaffofligini ta'minlashda parlament va mahalliy Kengashlar oldidagi ijroiya organlari hisobdorligini kuchaytirish tarafomiz. Mahalliy Kengashni **xalqning chinakam ovoziga aylantirish va hokimlarning Kengash oldida hisobdar bo'lishi**, mas'uliyati va javobgarligi oshishini ta'minlaydigan tizimni mustahkamlaymiz.

Qonunchilik, huquqni qo'llash amaliyotining tahlii hamda ilg'or xorijiy tajriba asosida **nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida qonunchilikni takomillashtirish**, aholi farovonligini ta'minlashda **mahallani ja-moatchilik** va davlat organlari o'ttasidagi "ko'pri"ka aylantirishga alohida e'tibor qaratadi. Bundan tash-qari, aholi turmushini yanada yaxshilash maqsadida "**Tashabbusli budget**"ga beriladigan mablag'larni **3 karra** oshirish kabi masalalarini ilgari suramiz.

Biz Yangi O'zbekistonda fuqarolar va biznesning himoyachisi faqat qonun hamda sud bo'lismeni istaymiz. Davlat organlari va mansabdar shaxslarning faoliyati ustidan samarali jamoatchilik nazoratini o'rnatib, odil sudlovgva erishish uchun barcha imkoniyatlarni safarabar etamiz.

O'zLiDeP sud mustaqilligi tarafomiz bo'lgan siyosiy kuch sifatida mamlakatimizda bu bora-da olib borilayotgan izchil islohotlarni to'liq qo'llab-quvvatlaydi. Lekin, ayrim partiyalar tomonidan ayni yo'naliishda ilgari surilayotgan takliflar maqsadga yetishni ortga surishi mumkin. Masalan, Xalq demokratik partiyasi o'rta ga tashlayotgan viloyat, tuman (shahar) sudsular raislarini rotatsiya qilish amaliyotini joriy etish tashabbusi sudsular mustaqiliga bevosita ta'sir qiladi. Ya'ni, mamlakatimizda nafaqat sudsular, balki sudyalar ham mustaqildir. Ularning rotasiyasini amalga oshirish yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda belgilangan sudyalar mustaqilligi, faqat Konstitutsiya va qonunga bo'yusunishlariga oid normaga mantiqan to'g'ri kelmaydi. Sudya mustaqil bo'la turib, viloyat, tuman (shahar) sudsular raislarini rotatsiya qilishdan qanday ma'no bor? Ular faqat Konstitutsiya va qonunga bo'yusunadilar.

Biz ilg'or xorijiy tajribadan kelib chiqib, qonunchilikni qo'llashda muayyan sud ishi bo'yicha chiqarilgan sud hujjatini boshqa shu turdagidan isha-ra qo'llash imkonini beruvchi "**sud pretsendenti huquqi**"ni amaliyotga joriy etish ayni mudda, deb hisoblaymiz.

Biz mamlakatimizda sud-huquq tizimini yangi bosqichga olib chiqmoqchi bo'lsak, sud pretsendentini tezroq amalda qo'llashimiz lozim. Buning vaqtini keldi.

Shu bilan birga, jabrlanuvchining iltimosiga asosan **jinoyat ishini qo'zg'atmasdan ham yarashish imkoniyatini berish** choralarini ko'ramiz. Bu bilan uzoq davom etishi mumkin bo'lgan jinoyat protsessini oldini olishga erishamiz.

Jinoyat sodir qilgan shaxslar kelgusida tuzalish yo'liga o'tishi uchun muqobil jazo va boshqa huquqiy ta'sir choralarini kengaytirishli juda muhim, deb hisoblaymiz.

Iqtisodiy jinoyatlar bo'yicha **garov ehtiyyot chorasidan keng foydalanish** imkoniyati yaratiladi. Bu masalada ayblanuvchi yoki himoyachi tomonidan sudsular ehtiyyot chorasini o'zgartirish haqidagi murojaat qilish imkoniyatlari kengaytiriladi.

Ichki ishlari va milliy gvardiya organlari xodimlari ning fuqarolar bilan **muloqot qilish standartlarini** joriy etish orqali ularni xalq ko'z o'ngida tom ma'no da himoyachiga aylantiramiz.

Barcha sohalarda shaxsga doir ma'lumotlar bilan ishslash talablarini kuchaytiramiz. Pirovard maqsadimiz fuqarolarning shaxsiy hayot daxlsizligini ta'minlash, mulki va mablag'larni firligardar, ayniqsa, topora bo'y ko'rstatoyotgan kiberjinoyatchilardan himoya qilishdir.

Yana bir jiddiy vazifa, Advokatlar palatasining advokatlari himoya qilish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash borasidagi faoliyatini takomillashtirishdan iborat. **Advokatlar reytingini joriy qilish** orqali advokatlik tizimida raqobat muhitni rivojlantiriladi, salohiyatlari advokatlar ko'payadi.

Partiyamiz biznes yuritishga xalaqtir berayotgan qator normalarni qayta ko'rib chiqish taklifini ilgari suradi.

Partiyamiz oldida turgan yana bir dolzarb vazifalaridan biri – bu ochiqlik siyosatini izchil davom ettirish va xalq bilan muloqotni yanada kengaytirishdan iborat. Bu borada ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligi, fuqarolarning axborot olish, undan foydalishni va tarqatishga bo'lgan huquqilari qat'iy kafolatlaymiz. So'z erkinligiga qarshi har qanday urinishlarga qarshi turib, mustaqil nodavlat matbuot tizimini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlaymiz.

Partiya korrupsiyaga qarshi kurashish bilan bog'liq muhim tashabbuslarni ham ilgari suradi. Ya'ni, korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish tizimining samaradorligini oshirish, jamiyatda korupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish ishlarini jadal davom ettiramiz. Korrupsiyaga qarshi kurashishda davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha choralar ko'ramiz. **Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2030-yilgacha mo'ljalangan Milliy strategi-yani** qabul qilamiz.

AHOLIGA QULAY ATROF-MUHIT SHAROITLARINI YARATAMIZ

O'zLiDeP atrof-muhitni muhofaa qilish yo'nali-shida kelgusi besh yillikda quyidagi masalalarni o'z saylovoldi dasturining ustuvor yo'naliishlari etib belgilagan.

Suv resurslaridan oqilona foydalanan maqsida **suv xo'jaligida davlat-xususiy sheriklik va autorsing** asoslarini joriy etish darkor. Chunki suv resurslari muammosi kelgusi o'n yilliklarda mintaqamiz va mamlakatimiz uchun eng dolzarb masala bo'lib qoladi.

Shu sababli besh yil ichida barcha ekin maydonlarida suv tejaydigan texnologiyalarni joriy qilgan fermer va dehqonlar xarajatining 50 foizini qoplab berish ayni muddaodir.

Ekojiga sohasidagi ishlarni tashkil etish borasida huquqiy va tashkiliy asoslar zamon talabidan kelib chiqib takomillashtirishi zarur deb hisoblaymiz va barcha hududlarda, atmosfera havosini yaxshilash bo'yicha "**Musaffo havo – 2030 milliy dasturi**"ni qabul qilishini ustuvor vazifa deb bilamiz.

Orolbo'yimintaqasiga birlamchi e'tibor qarat-gan holda dengizing qurigan tubida **qo'shimcha 500 ming hektar yashil maydonlarni** barpo etib, ularning umumiyyaj hajmini **2,5 million hektarga** yoki hududning 78 foiziga yetkazamiz.

"Yashil iqtisodiyot" ko'lamini kengaytirish va "yashil" o'sish orqaligina barqor tarraqqiyotni ta'minlash mumkin, deb hisoblaymiz. Respublikamizda **qayta tiklanuvchi energiya manbalarini 2,5 barobarga** oshirib, ishlab chiqarilgan energiyada ularning ulushini 40 foizga yetkazamiz. "Yashil" texnologiyalarni keng qo'llash, ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqish, ishlab chiqarishda yopiq siklii texnologiyalardan foydalanimi rivojlantiramiz.

IQTISODIY DIPLOMATIYA OCHIQ, O'ZARO MANFAATLI VA KONSTRUKTIV TASHQI SIYOSAT GAROVI

Partiyamiz Yangi O'zbekiston tashqi siyosati faqat xalqimizning milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda olib borilishi zarur, degan qat'iy pozitsiyada.

Biz uzoq va yaqin davlatlar, xalqaro tashkilotlar bilan aloqalar va hamkorlikni ana shu tamoyil asosida rivojlantirish tarafdormiz.

Biz ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat davom ettirilishiga xayriyomiz.

O'zLiDeP saylovoldi dasturida xorijagi vatan-doshlarimiz bilan hamkorlikni mustahkamlash va migrantlar huquqlarini ta'minlashga ham alohi-da e'tibor qaratilgan. Xususan, xorijagi vatan-doshlarimizni qo'llab-quvvatlab, ularning yur-

timiz taraqqiyotida faol ishtiroy etishlari uchun zarur sharoitlarni yaratamiz. Ular o'tasida **ona tili, milliy madaniyat va an'analarini targ'ib etish** bo'yicha tizimini choralar ko'ramiz.

Murakkab vaziyatga tushib qolgan yurtdoshlari-mizga **huquq va boshqa yordamlar ko'rsatish tizimini** yanada takomillashtiramiz. Shuningdek, mehnat migrantlari va ularning **oila a'zolariga doimiy g'amxo'rlik** qilish va **ijtimoiy sug'ur-ta tizimini takomillashtirish** bo'yicha choralar ko'ramiz.

O'zLiDeP – Vatan ravnaq yo'lidan ortga qaytmaydi. Bu boradagi sinov va mashaq-qatlarni elektorat manfaati uchun yengib o'tadi hamda hamisha xalq bilan birga bo'ladi!

Dilorum FAYZIYEVA,
Dilmurod ARTIKOV,

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlar.

MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR – MA'NAVIY YUKSALISH VA MADANIY TARAQQIYOTNING MUHIM ASOSI



Parlament va mahalliy kengashlarga o'tkazilayotgan navbatdagi saylovlarda biz "Qudratli davlatga tayangan, qonun-lari milliy va umuminsoniy qadriyatlarga uyg'un, inson qadri baland, farovon jamiyat qurish" vazifasini bosh maqsadimiz, "Qadriyatlarga tayangan taraqqiyot" g'oyasini bosh shiorimiz deb belgiladik.

Biz uchun "Qadriyatlarga tayangan taraqqiyot" shiori milliy-madaniy qadriyatlar hamda zamonaviy taraqqiyotning uyg'unligida jonajon O'zbekistonimizni qudratli davlat, xalqimizni farovon bo'lish yo'lidiagi bir-lashitiruvchi da'vatdir.

Saylovoldi dasturning barcha bo'limlari qadri-yatlarimizni tiklashga, ularni rivojlantirishga doir aniq maqsad va vazifalar belgilanib, dasturning ikkinchi yo'naliши "Ma'naviy yuksalish va madaniyatni rivojlantirish" deb nomlanib 3 ta bo'lim, 26 vazifadan iborat.

MILLIY MADANIYAT VA MA'NAVIYATNI RIVOJLANIRISH, QADRIYATLARNI ASRASH, BOYITISH ASOSIY VAZIFALARIMIZDAN BIRI BO'LADI

Bugun partiya har bir vatandoshimizni o'z ona yurtiga mamsubligini anglatish uchun, milliy qadriyatlar zamiridagi buniyodkor g'oyalari bilan xalqni qurollantirish uchun va eng muhamimi, dunyoning qaysi burchagida bo'lismizdan qat'iy nazar "Biz birmiz, O'zbekistonlikmiz", degan g'oya atrofida birlashishga chaqiradi.

Partiya saylovoldi dasturda inson salohiyatining ro'yobga chiqishida uning ma'naviy dunyosi, madaniy dunyoqarashi muhim ahamiyatiga ega ekanligini ta'kidlangan holda, **kitobxonlikni ommalmashtirish, teatr, kino va san'atning boshqa sohalarini targ'ib qilish** orqali jamiyat va har bir shaxs ma'naviyati va madaniy savyasini oshirish maqsadida quydagiarni taklif etadi:

- madaniy-ma'rifiy sohada **hokimlar mas'uliyatini** oshirish;

- **teatr san'atini** rivojlantirish dasturini ishlab chiqish;

- milliy seriallar ishlab chiqarish konsepsiyanı tarihatish;

- bolalar abadiyoti, musiqasi, qo'shiqlari, san'ati, kinosi, multfilmalarini yaratish, **nashrlii faoliyatini rivojlantirish**;

- milliy va o'zga ramzlar, timsol (simvol)lardan foy-danlarini tarihibarli bilan foydalanish **tartiblarini takomillashtirish**;

- qadimiy asarlar va qo'lyozmalarini tadqiq etish, nasr qilishni yanada ko'paytirish;

- qadriyatnarni toifalashtirish, tiklanishga muhtoj, barqor saqlanishi zarur qadriyatlar ro'yxatini tuzish, ommalashtirish va boshqa.

Yuqorida qayd etilgan vazifalar milliy qadriyatlar tarihoti vositalarining deyarli barchasini qamrab olgani bilan ahamiyatlidir.

Fikrimizni milliy qadriyatimiz bo'lgan mutolaad madaniyatining poydevori bo'lgan bolalar abadiyotining rivoji yo'lidiagi ayrim holatlar borasidagi kuzatuvlarimiz misolida davom ettirsak. Negaki, o'zlikni anglash ehtimoldan yiroq emas. O'zbek tilining qonun, ilm-fan va texnologiya sohalarida to'liq qo'llanilishiha shaxs ham shuning uchun juda muhim. Milliy o'zlikni saqlashda ham til beqiyos ahamiyat kasb etib, u nafaqat muloqot vositali, balki millatning fikrash tarzi, ilm-fan va texnologik taraqqiyotini aks ettiradigan vositali ham hisoblanadi.

Shu bois, partiya davlat tilining maqomi va nufuzini oshirishga qaratilgan davlat siyosatini qo'llab-quvvatlab, madaniy qadriyatlaridan ham uzoqlashsha, madaniy qadriyatlaridan ham uzoqlashshi mumkin, bu esa millatning yo'qolishiga olib keishi ehtimoldan yiroq emas. O'zbek tilining qonun, ilm-fan va texnologiya sohalarida to'liq qo'llanilishiha shaxs ham til beqiyos ahamiyat kasb etib, u nafaqat muloqot vositali, balki millatning fikrash tarzi, ilm-fan va texnologik taraqqiyotini aks ettiradigan vositali ham hisoblanadi.

Shu bois, partiya davlat tilining maqomi va nufuzini oshirishga qaratilgan davlat siyosatini qo'llab-quvvatlab, madaniy qadriyatlaridan ham uzoqlashsha, madaniy qadriyatlaridan ham uzoqlashshi mumkin, bu esa millatning yo'qolishiga olib keishi ehtimoldan yiroq emas. O'zbek tilining qonun, ilm-fan va texnologiya sohalarida to'liq qo'llanilishiha shaxs ham til beqiyos ahamiyat kasb etib, u nafaqat muloqot vositali, balki millatning fikrash tarzi, ilm-fan va texnologik taraqqiyotini aks ettiradigan vositali ham hisoblanadi.

Xususan, partiya O'zbekistonda "Davlat tili haqida"gi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratmoqda.

IIm-fan, texnika shiddat bilan rivojlanayotgan davrda tilimiz sofligini saqlash, joylarga nom tanlashda ma'naviyatimiz va mentalitetimizga xos va mos, turli sohalar orqali tilimizga kirib kelayotgan yangi atamalarini o'zbekcha muqobillarini yaratishga hamda ijtimoiy hayotimizda davlat tili, ma'naviy qadriyatlarimiz bilan bog'liq masalalarni hal qilishda barcha birdekk mas'ul bo'ladi.

Shu bois, partiyaning davlat tiliga doir hujjatlarni isloh qilish bo'yicha Davlat komissiyasini tashkil etish, "Davlat tili haqida"gi Qonunni yangi tahrirda qabul qilish haqidagi tashabbuslari ham dolzor ahamiyat kasb etib, davlat tili nufuzini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Kulosa qilib aytganda, yurtimizda milliy uyg'onish davrining navbatdagi bosqichi boshlandi. Bu jarayonda esa, partiya g'oya va maqsadlarni kelib chiqsak, **ma'naviy yuksalish va madaniyatni rivojlantirish masalasi</**

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH – USTUVOR VAZIFAMIZ

ADOLAT
SOTSIAL-DEMOKRATIK PARTIYASI

Partiya qonunlarni ijro etish jarayonida ularga nisbatan har qanday formal munosabatda bo'lish va buning natijasida adolatga putur yetkazish holatlarni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha doimiy faoliyatni yo'lga qo'yadi.

Partiya davlat mablag'lariq qilingan har qanday tajovuzni Vatanga xiyonat sifatida baholaydi va talon-torjilik hamda suiiste'molchiliklarni qat'iy jazolash principini ilgari suradi.

Davlat budgeti mablag'lariini noqonunni xarajat qilish, kamomad va o'g'riliklarga barham berish, **davlat budgeti daromadlari va xarajatlarining shaffofligini ta'minlash**da quyidagi zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim, deb hisoblaymiz:

- davlat daromadiga undiriladigan barcha to'lovlar (jarimalar, davlat bojlari, yig'imlar va boshqa ma-jburiy undiruvlar) vazirlik va idoralar g'aznasiga emas, to'aliqicha davlat budgetiga tushishini ta'minlash;

- budget mablag'laridan oqilona foydalanish maqsida davlat xaridlariga oid qonunchilikni takomillash-tirish;

- davlat budgeti daromadlari va xarajatlari bilan bog'liq barcha jarayonlarni raqamlashtirish va ochiqlash;

- "Tashabbusli budget" tizimi doirasida ajratilayotgan mablag'larning hajmini oshirib borish, amalga oshirilayotgan loyihibalar ustidan deputatlik va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.

Partiya korrupsiya jamiyatimiz taraqqiyoti, iqtisodiyoti hamda xalqimiz farovonligiga katta salbiy ta'sir ko'satayotganini ta'kidlagan holda, korrupsiyaga qarshi kura-shish sohasida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishni muhim deb biladi:

- korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlar, ayniqsa, talon-torj holatlari uchun jazoni kuchaytiruvchi, **yetkazilgan zaraarlarni o'n barobar miqdorda undirishni nazarda tutuvchi normalarni** qonunchilikka kiritish;

- ilg'or xorijiy davlatlar tajribasi asosida korrupsiya faktlarini **"dastlabki o'rganish"** (korruption surishitiruv) institini joriy etish;

- **jinoiy yo'l bilan xorija olib chiqib ketilgan aktivlarni qaytarishning samarali mexanizmlarini joriy etish**, bunda qaytarilgan aktivlarning ijtimoiy soha-ga yo'naltirilishini hamda bu jarayonlarda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash;

- "O'zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasini mam-lakatimizning hozirgi ochiq, konstruktiv va amaliy tashqi siyosati hamda jahon maydonida tobora ortib borayotgan o'mni va mavqeidan kelib chiqqan holda takomillashtirilgan yangi tahrirda qabul qilish;

- O'zbekiston Respublikasida diplomatik xizmat sohasidagi munosabatlarni, shuningdek, diplomatlar va ularning oila a'zolarining ijtimoiy himoyasini tartibga solishqa qaratilgan "O'zbekiston Respublikasining diplomatik xizmati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunini qabul qilish;

- "O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga **xalqaro shartnomalar loyihibalarini ishlab chiqish va kelishish**, shuningdek, lingistik, antikorruptionsiyavi va boshqa tur-dagi ekspertizalardan o'tkazish tartiblarini aniqlashtirishni ko'zda tutuvchi qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritishni taklif qilamiz.

- Biz aholimizni, ayniqsa, yoshlarni mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, milliy manfaatlarga asoslangan ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish siyosatini qo'llab-quvvatlashga chaqiramiz.

- Aziz vatandoshlar!

"Adolat" sotsial-demokratik partiyasi o'z oldiga yuqorida qayd etilgan olijanob va egzu maqsad-vazifalarni belgilab olgan. Ular adolatli jamiyat va huquqiy davlat qurishda – ijtimoiy islohotlarning samaradorligini ta'minlash, mehnatkash xalqimiz uchun farovon hayotni barpo etish, mamlakatimizda barqarorlik va ijtimoiy adolat ustuvorligiga erishishga qaratilgandir!

Hayotda ijtimoiy adolatni o'rnatish, albatta, ko'pdan-ko'p omillarga bog'liq. Sizning saylovdagisi faol ishtirokingiz va xohish-istagingiz asosida biz mamlakatimizda keyingi 5 yil mobaynida ularni hayotga tatbiq eta olamiz.

Ishonamizki, partyaning bunday ulug'vor maqsadlari saylovchilar tomonidan qo'llab-quvvatlanadi!

Saylovida partiyamizni va partiyamiz tomonidan ko'rsatilgan nomzodlarni qo'llab-quvvatlasangiz, Siz – aziz yurt-doshlarimizning tinch va farovon hayot uchun, belgilangan vazifalarni ro'yogba chiqarish uchun bor kuch-g'ayratimizni safarbar qilamiz!

Maqsadimiz hammamiz uchun aziz va mo''tabar shu zaminda, har bir xonadonda tinchlik-osoyishtalikni, farovonlik va barqarorlikni saqlashdir.

O'zbekiston – bizning umumiy uyimiz. Shunday ekan, uning har bir fuqarosi erkin, adolatli, tinch va farovon ya-shashga haqlidir!

Adolatli jamiyat va huquqiy davlat uchun! "Adolat" SDP-ga ovoz bering!

«ADOLAT» SOTSIAL-DEMOKRATIK PARTIYASIGA OVOZ BERING!

MUASSIS: Samarcand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarcand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 11 666 nusxada chop etildi. Buyurtma 545. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshnabi, payshanba va shanba kunlari chiqishi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, **REKLAMA VA E'LONLAR:** (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarcand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

TANLOVDA QATNASHING!

**O'ZBEKISTON-FINLANDIYA PEDAGOGIKA INSTITUTI
QUYIDAGI KAFEDRALAR BO'YICHA LAVOZIMLARGA
TANOV E'LON QILADI:**

KAFEDRA DOTSENTI LAVOZIMIGA:

1. O'zbek tili va adabiyoti kafedrasiga – 1 o'rinn;
2. Pedagogika kafedrasiga – 1 o'rinn;
3. Musiqa ta'limi kafedrasiga – 1 o'rinn;
4. Maktabgacha ta'lilm kafedrasiga – 1 o'rinn;
5. Boshlang'ich ta'lilm kafedrasiga – 1 o'rinn;
6. Matematika kafedrasiga – 1 o'rinn;
7. Informatika kafedrasiga – 1 o'rinn;
8. Fizika kafedrasiga – 1 o'rinn;
9. Psixologiya kafedrasiga – 1 o'rinn;
10. Milliy g'oya va falsafa kafedrasiga – 1 o'rinn;
11. Tarix kafedrasiga – 1 o'rinn;
12. Jismoniyl madaniyat va sport kafedrasiga – 1 o'rinn;

KAFEDRA STAJYOR-O'QITUVCHISI LA-VOZIMIGA:

1. O'zbek tili va adabiyoti kafedrasiga – 1 o'rinn;

**TANLOVDA QATNASHISH UCHUN
QUYIDAGI HUJJATLAR TAQDIM ETILADI:**

- institut rektori nomiga ariza;
- xodimlar hisobi bo'yicha shaxsiy varaqqa;
- oliy ma'lumot, ilmiy daraja haqidagi diplomlarning nusxalar;
- ilmiy unvoni haqidagi attestatning nusxasi;
- ilmiy va uslubiy ishlarning ro'yxati;
- malaka oshiganligi to'g'risidagi guvohnoma;
- Xorijiy tillarni bilish darajasini belgilovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlar nusxasi (mavjud bo'lsa).

Xorijiy tillar bo'yicha sertifikatga ega, PhD yoki DSc ilmiy darajasiga ega, dotsent yoki professor ilmiy unvoniga ega bo'lgan talabgorlarga ustunlik beriladi.

Hujjalr gazetada e'lon chop etil-gach, bir oy davomida quyidagi manzilda qabul qilinadi: Samarcand shahri Spitamen shohko'chasi, 166-uy.

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarcand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Sultanova Sharofatga (2011-yil 21-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'larning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarcand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

* * *

Samarcand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Turabova Mexriga (2000-yil 3-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'larning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarcand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

* * *

Samarcand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasida marhum Xamrokulova Istatga (2024-yil 24-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'larning Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarcand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 51-uy.

* * *

Samarcand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zairovna notarial idorasida marhum Ismatov Askarali Radjabovichga (2022-yil 15-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'larning Aliyeva Lola Zairovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarcand shahri Gulobod ko'chasi, 5-uy.

* * *

BEKOR QILINADI

Payariq tumanidagi "HZSOLAR GROUP" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 311547562) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Samarqand tumanidagi "ZA-RAVSH-AN" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 307862157) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Samarqand shahrida maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi 53-umumiy o'rta ta'lim maktabi jamoasi va kasaba uyushma qo'mitasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarcand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

* * *

Samarcand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zairovna notarial idorasida marhum Gaziyev Ismatullo Nusrat.

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

O'.XUDOYBERDIYEV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.

ISSN-201667X



9 7 7 2 0 1 0 6 6 7 0 0 9

Sotuvda narxi kelishilgan holda

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skanner qiling